

**BIR HIKOYA T AHLILI**  
(*Abdusaid Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasi asosida*)

*Misirova Mehriniso Azamat qizi,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi  
Ilmiy rahbar: Yuldasheva Saodat Azizovna,  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdusaid Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, hikoyaning mohiyati, yozuvchi mahorati, psixologik tasvir vositalari va ramziy obrazlar haqida fikr yuritiladi. Hikoyaning asosiy g'oyasi – insonning o'tgan hayotiy tajribalari va xotiralarning kelajakdag'i qarorlariga ta'siri maslasini ochib berishdir. Tahlil jarayonida hikoyaning badiiy vositalari, timsollar, psixologik tasvir hamda o'zbek hikoyanavisiligi an'alari bilan bog'liqligi o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar.** Hikoya badiiy asar, o'zbek hikoyachiligidagi davr va shaxs talqini, hikoyaning mazmuni va g'oyasi, davr tasviri, yozuvchi mahorati.

**BİR HİKAYE ANALİZİ**  
(*Abdusaid Kochimov'un "Binafsha" hikayesinden uyarlanmıştır*)

*Misirova Mehriniso Azamat kizi,  
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi  
Bilimsel danışman: Yuldasheva Saodat Azizovna,  
Özbek dili ve edebiyati bölümü doçenti*

**Özet.** Bu makale Abdusaid Kochimov'un "Binafsha" öyküsünü incelemektedir. Ayrıca hikâyenin özü, yazarın becerisi, psikolojik imgeleme araçları ve sembolik imgeler tartışılmaktadır. Hikâyenin ana fikri, bir insanın geçmiş yaşam deneyimlerinin ve anılarının gelecekteki kararları üzerindeki etkisini ortaya koymaktır. Analizde hikâyenin sanatsal araçları, semboller, psikolojik imgeleri ve Özbek hikâye anlatma gelenekleriyle bağlantısı incelenmektedir.

**Anahtar kelimeler.** Hikaye, bir sanat eseri, Özbek hikayeciliğinde dönemin ve kişiliğin yorumlanması, hikâyenin içeriği ve fikri, dönemin tasviri ve yazarın ustalığıdır.

**АНАЛИЗ ОДНОГО РАССКАЗА**  
(*По повести Абдусаида Кочимова «Бинафша»*)

*Мисирова Мехринисо Азамат кызы,  
Студентка Узбекско-Финский педагогический институт  
Научный руководитель: Юлдошева Саодат Азизовна,  
Доцент кафедры узбекского языка и литературы*

**Аннотация.** В данной статье анализируется рассказ Абдусаида Кочимова «Бинафша». В ней также рассматриваются суть рассказа, мастерство писателя, средства психологической образности и символические образы. Основная идея рассказа - раскрыть влияние прошлого жизненного опыта и воспоминаний человека на будущие решения. В ходе анализа изучаются художественные средства, символы, психологические образы рассказа, а также его связь с традициями узбекского сказительства.

**Ключевые слова.** Рассказ является произведением искусства, интерпретацией эпохи и личности в узбекском сказительстве, содержанием и идеей рассказа, изображением эпохи, мастерством писателя.

**ANALYSIS OF ONE STORY**

(Based on the story "Binafsha" by Abdusaid Kuchimov)

*Misirova Mehriniso Azamat qizi,  
Student of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute  
Scientific supervisor: Yuldasheva Saodat Azizovna,  
Associate Professor of the department of Uzbek language and literature*

**Abstract.** This article analyzes the story "Binafsha" by Abdusaid Kuchimov. It also discusses the essence of the story, the writer's skill, psychological imagery, and symbolic images. The main idea of the story is to reveal the influence of a person's past life experiences and memories on future decisions. In the process of analysis, the story's artistic means, symbols, psychological imagery, and the connection with the traditions of Uzbek storytelling are studied.

**Keywords.** The story is a work of art, an interpretation of the era and personality in Uzbek storytelling, the content and idea of the story, the depiction of the era, and the writer's skill.

Istiqlol davri o'zbek she'riy va nasriy yozuvchisi Abdusaid Ko'chimov ijodi alohida o'rinn egallaydi. Ayniqsa, yozuvchining asarlari hikoyalari badiiy g'oyaviy ifodaviy jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy o'zbek nasri tobora globalashib, butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni badiiy talqin etib borilmoqda. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi mavzu mohiyati ham qarib yuz yildan ziyod umrini insonning o'zini anglashga va uning yoritib berishga bag'ishlab yashamoqda. SHubhasiz bu janrning shakllanishi taraqqiy etishda juda ko'plab adiblarimizning adabiy-ijobiy tajribalari to'planib, bugungi qiyofasiga ega bo'ldi. O'zbek hikoyachilik maktabini yaratgan namoyondalardan *Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Sobir O'nar, Abdusaid Ko'chimov* singari yozuvchilarning o'ziga xos ijodiy tajribalari yosh qalamkashlariga ham mahorat darslari vazifasini o'taydi. Hikoya prozaning eng kichik janri bo'lsada uning bag'rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi. Hikoya har xil ta'rif -u tavsiflar berilgan. Biroq har bir hikoyaning ta'rifi *Erkin A'zam* ta'biri bilan aytganda, o'zi bilan birga tug'iladi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Quyida Abdusaid Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasi tahlili orqali ijodkorning hikoyaga yuklagan ma'no va mazmunini, g'oya va maqsadini aniqlashga harakat qilamiz. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanib, ular badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega.

Abdusaid Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasi o'zi e'tirof etganidek, hayotning beshavqatligi, jamiyatning qoidalari, urf-odatlari insonning, ichki kechinmalari ijtimoiy xohishlar o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Abdusaid Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasining markaziy obrazi Binafsha hisoblanadi. U yosh va go'zal qiz bo'lib, uning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki dunyosi ham muhim o'rinn tutadi. Binafsha o'zining sof qalbi, samimiyligi va to'g'ri fikrlari bilan tanilgan. U o'ziga xos o'zgarishlarni qabul qilishga tayyor bo'lib, unda tashqi muhit atrofdagilar va hayotdagi turli holatlar ta'sir ko'rsatadi. Uning obrazi go'zal va mehribon bo'lishiga qaramay, o'zining hayotida qandaydir dardlarini va kurashlarni boshidan kechirishini anglatadi. Bu obraz orqali, Ko'chimov, insonning o'zini anglash va ichki kurashlarini tasvirlaydi. Binafsha hayotida unga ta'sir ko'rsatadigan boshqa obrazlar ham muhim rol o'ynaydi. Bu obrazlar orqali asar turli ijtimoiy va shaxsiy masalalarini ko'rib chiqadi. Ko'chimovning obrazlari orqali, jamiyatning qoidalari, urf-odatlari va insoniyatning an'anaviy qadiriyatlariga qarshi turish yoki ularni qabul qilish masalalarini ko'rib chiqiladi, Binafshaning qarorlari, ko'pincha shaxsiy va ijtimoiy xohishlar o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Yozuvchi bu hikoya orqali o'sha davrdagi jamiyatning chirkin ahvolini va insonlarning ongsizligini ochib berishga harakat qilgan. Yozuvchi ushbu hikoyani yozishdan maqsadi insonlarning chuqur psixologik holatlarni va jamiyatdagi o'zgarishlarni to'g'ri talqin qilishga undaydi. Ko'chimovning "Binafsha" hikoyasi – o'zbek adabiyotining muhim asarlaridan biridir. SHuning uchun hikoyada insonning o'zini anglash jarayoni, o'zgarishlarga

munosabat va shaxsiy erkinlik masalalarini yoritadi. Hikoya, shuningdek yosh avlodning jamiyatdagi o'rni qadryatlar va ijtimoiy qoidalar bilan bog'liq masalarni ham o'rtaga qo'yadi.

Keltirilgan ushbu hikoyadan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi har doim insonlarning ongini past ekanligiga va o'z fikr mulohazalari bilan emas, balki o'zgalarning gaplari bilan va insonlarning tashqi ko'rinishiga qarab baho berishni qoralaydi. O'sha davrdagi mansabdor shaxslar ham ilmli ayollarga nisbatan noto'g'ri fikr yuritganlar.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi.—Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2011. 39-b.
2. Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari.—Toshkent: "Noshir", 2019. 3-b.
3. Pedagogik mahorat.— Toshkent: M.M. Ahmedjanov, B.Q. Xo'jayev, Z.D. Hasanova, 2010. 18-b.
4. Adabiyotshunoslik nazariyasi.— Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 50-b.
5. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan ma'ruzalar matni.— Samarqand: 2012. 8-b.
6. Adabiyotshunositlikka kirish. —Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 31-b.